

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MOHIYATI, IJOBIY VA SALBIY TARAFLARI

*Abdikarimova Aynurа Abay qizi
Toshkent davlat texnika universiteti*

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyot to'g'risida ma'lumot, raqamli iqtisodiyotning ijobjiy va salbiy taraflari yoritilib berilgan. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazishi, jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'yynashi maqolada aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, IT-park, Raqamli Toshkent, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT infratuzilmasi, 5G aloqa, 3D bosma, blokcheyn, sun'iy intellekt, virtual haqiqat.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turadi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot –bu xo'jalik iqtisodiyotini yuritish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinishida bo'lgan. Katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini tahlil qilish yordamida har xil turdag'i ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish texnologiyalari va mahsulotlarni yetkazib berish mumkin. Yana tushinarli tarzda aytadigan bo'lsak raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmat ko'rsatish elektron to'lovlarini amalga oshirish onlayn savdo va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarining rivojlanishiga bog'liq. Hozirgi kunda amalga oshiradigan onlayn savdo va boshqa turdag'i sohalarni, raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- Yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- Elektron hujjat almashinuvi;
- Buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;

- Ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM mavjudligi;
- Korporativ tarmoqlar.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi «Raqamli Toshkent» kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida statistikani takomillashtirish uchun quyidagi vazifalar belgilangi:

- Elektron tijoratni shakllantirish va hisobga olish ma'lumotlarini tayyorlash sohasida ilg'or tajribalar va metodologiyalarni amaliyatga joriy etish;
- AKT infratuzilmasi, AKTdan foydalanish, AKT xizmatlariga tariflar, AKTni ishlab chiqarish sektori, ta'limda AKTdan foydalanish, AKT savdosi va boshqa ma'lumotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanma va metodologiyalarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish;
- AKT sohasida statistik ma'lumotlarni shakllantirish va tarqatish bo'yicha Davlat statistika qo'mitasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi salohiyatini oshirish.

Raqamli iqtisodiyotning endi ijobjiy taraflari haqida aytib o'tsak:

Albatta, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning hayotimizga tadbiq etilishi har bir inson hayotida ko'plab ijobjiy imkoniyatlar berishi mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ortidan inson, unga kerakli xizmatdan tezroq foydalanishi, internet orqali o'ziga kerakli mahsulotlarni arzon sotib olish bilan ko'plab pul mablag'larini tejashi mumkin. Masalan biron bir kitobning elektron ko'rinishda sotib olish Sizga, shu kitobni chop etilgan ko'rinishini sotib olish ancha arzonga tushishi mumkin. Yoki bo'lmasa oddiy iste'molchi o'zi ham tadbirkor bo'lishi, uyidan chiqmagan holda onlayn savdo-sotiq bilan shug'ullanishi mumkin.

- Mijozlarning ehtiyojlariga e'tibor qaratish- narxlarda, to'g'ri xizmatni tanlashdan tortib, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishgacha.
- Elektron va axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan- har qanday xizmatlarni olish jarayoni

soddalashtirildi, yetkazib beruvchi xaridor bilan bevosita o'zaro hamkorlik qilishi mumkin.

- Yangi startap g'oyalari, tendentsiyalar -raqamli xizmatlar, dasturiy ta'minot, texnologik tadqiqotlar bilan bog'liq barcha loyihalarga sarmoyaning keskin o'sishi kuzatilmoqda. Bu yangi ish o'rirlari yaratilishiga, ya'ni mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda.
- Onlayn biznes narxini pasaytirish orqali o'zgarishlarni qabul qiladigan va raqamli tizimga o'tadigan kompaniyalar gullab yashnamoqda. To'g'ridan-to'g'ri sotish ko'payib brogan sari, marketing, transport va logistika xarajatlari kamaymoqda.
- Biznes yuritishning shaffofligi-raqamli iqtisodiyotdagi operatsiyalarning aksariyati onlayn rejimda amalga oshiriladi, xaridlar haqidagi hamma ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri soliq idoralariga jo'natiladi.
- Mahalliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi, biznes yuritish kengayadi.
- Yangi ish o'rirlari yaratilinishi, yangi zamonaviy kasblar paydo bo'lishi;

Raqamli iqtisodiyotning salbiy taraflari esa:

- Huquqiy, texnik, firibgarlik, jismoniy va kriptografik ma'lumotlarni himoya qilish nuqtai nazaridan axborot xavfsizligi darajasini oshirish ta'minlanishi kerak.
- Ishsizlikning o'sishi- yangi kasblarning paydo bo'lishi sababli ishsizlarni soni tobora ko'payabdi.
- "Raqamli qullik" (millionlab insonlar ma'lumotlaridan keyinchalik ularni o'zlarini tutishini boshqarish uchun foydalanish);

Raqamli iqtisodiyotda xalq farovonligini strategik rejalashtirishda asosiy yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi:

- Xalqning turmush darajasini oshirish maqsadli tavsiflarini shakllantirish;
- Xalq farovonligi maqsadlarini amalga oshirishga ajratiladigan resurslarni tadqiq etish;
- Iste'mol fondi hajmi va strukturasining istiqboldagi dinamikasini tadqiq etish;
- Aholi daromadlari strukturasi va hajmi ko'rsatkichlarini shakllantirish;
- Iste'mol ijtimoiy fondlari shakllantirish jarayonlarini tadqiq etish;
- Noishlab chiqarish sohasining rivojlanish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;
- Noishlab chiqarish kapital qo'yilmalarini amalga oshirish jarayonlarini modellashtirish;
- Noishlab chiqarish fondlari hajmi va strukturasini dinamikasini modellashtirish;

- Xalqning turmush darajasini o'stirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni baholash;
- Xalqning turmush darajasi rivojlanishini umumiy strategik rejalshtirish va uni xalq xo'jaligi strategik rejasining boshqa bo'lmlari bilan muvofiqlashtirish;
- Xalqning turmush darajasini oshirish rejalarini bajarish jarayonlarini baholash va ularning bajarilishini rag'batlantiradigan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- Strategik reja sifatini sistematik baholash va uning bajarilishini nazorat qilish.

Raqamli iqtisodiyot tayanadigan asosiy texnologiyalardan yana biri bu buyumlar internetidir. Ya'ni, ko'plab maishiy uskunalar elektr tarmog'iga ulanganligi odatiy, lekin bular ikkinchi darajali hisoblanadi. Moddiy dunyoning tobora ko'plab obyektlari internetga ulanmoqda, bu esa axborot to'plash va hatto bu obyektlarni masofadan turib boshqarishni ham ta'minlamoqda. Amalda internetda tashqi dunyo va obyektning turli ko'rsatkichlaridan iborat bo'lgan moddiy obyektning virtual nusxasi paydo bo'lib, ushbu obyektni internet orqali boshqarishga imkon bermoqda.

Raqamli iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishi bir qator ilg'or texnologiyalarning muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday beshta texnologiyani ajratib ko'rsatish mumkin:

- 5G - aloqa;
- 3D - bosma;
- blokcheyn;
- sun'iy intellekt;
- virtual haqiqat.

Sanab o'tilgan texnologiyalar rivojlangan mamlakatlarning strategik hujjalarda belgilangan eng muhim rivojlanish yo'nalishlaridan biridir. Ko'rsatib o'tilgan texnologiyalar jadal rivojlanish bosqichida, ular yildan-yilga takomillashmoqda. Har bir texnologiya iqtisodiyotning bir qator an'anaviy sanoat tarmoqlariga va umuman biznesga tubdan ta'sir ko'rsatishi mumkin .

5G –aloqa - (ingliz tilidan. beshinchı avlod). Beshinchı avlod mobil aloqa standarti (5G) – bu texnologiyaning rivojlanishidagi yangi bosqich bo'lib, u radioga kirish tarmoqlari orqali Internetga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga mo'ljallangan.

5G texnologiyasi quyidagi vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan:

- mobil trafik o'sishi;
- tarmoqqa ulangan qurilmalar sonining ko'payishi;
- yangi xizmatlarni joriy etishda kechikishlarni kamaytirish;

- chastota spektrining yetishmasligi.

3D - bosma - (ingliz tilidan, 3 - o'lcovli). Uch o'lchovli bo'shliq (grafika). So'nggi yillarda sanoat, zargarlik buyumlari va modellashtirish sohasida eng qisqa vaqt ichida va eng yuqori aniqlikda kutilgan kerakli natijalarga erishgan modellarni yaratish uchun innovatsion dizaynlar va zamonaviy uskunalar tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Blokcheyn – ma'lum qoidalarga muvofiq qurilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma-ket zanjiri (bog'langan ro'yxat). Ko'pincha blok zanjirlarining nusxalari birbiridan mustaqil ravishda turli xil kompyuterlarda saqlanadi.

Sun'iy intellekt. Sun'iy intellekt texnologiyalari mashinani o'rganish, tasvirni aniqlash va nutq kabi ishlanmalarni o'z ichiga oladi. AI, AKT, media-sanoat, chakana savdo, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda qo'llaniladi. AI eng yaxshi uchta sohada amalga oshiriladi: telekommunikatsiya, avtomobilsozlik va moliyaviy xizmatlar.

Ko'rib chiqilgan texnologiyalar raqamli iqtisodiyotning eng yangi texnologiyalaridir, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalariga va ijtimoiy faoliyatga, shu jumladan ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, ta'lim, moliyaviy xizmatlar, transport va boshqa sohalarga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak endi, so'ngi vaqtarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi juda ko'p marta qo'llanilmoqda. Darhaqiqat, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot ularning rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazgan. Jamiyat hayotida raqamli iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Boshqacha qilib aytgancha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraufdanding va boshqa turdag'i sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xashimova S., Abdikarimova A. RAQAMLI IQTISODIYOT HAQIDA TUSHUNCHA, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 6 Part 6. – С. 225-228.
2. Хашимова С. Н. ПАНДЕМИЯ ШАРОИТИДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2022. – №. 3 (151). – С. 77-80.
3. Xashimova S. N., Abdikarimova A. A. BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLASHTIRISH.
4. G.M. Porsaev, B.Sh. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. (Darslik) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 372 b.
5. <https://stat.uz/uz>
6. <https://www.texnoman.uz/>
7. <https://www.hocktraining.com/>